BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA ZAMONAVIY METODLARNING QO‘LLANILISHI

Xo‘jaqulov Shavkat Samatovich
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida media savodxonlikni oshirishda zamonaviy metodlar, psixologik yondashuvlar, xalqaro tajribalar va 4K modelining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilarning yoshiga mos metodlar, o‘qituvchilar va ota-onalar ishtiroki, baholash mezonlari, shuningdek, O‘zbekistondagi ilg‘or tajribalar asosida fikr yuritiladi. Maqolada ilmiy-nazariy va amaliy tajribalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining media savodxonlik ko‘nikmalarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi.

Kalit so‘zlar: media savodxonlik, boshlang‘ich ta’lim, 4K modeli, media pedagogika, media axloq, raqamli xavfsizlik

Аннотация: В данной статье анализируется значение современных методов, психологических подходов, международного опыта и модели 4К в повышении медиаграмотности учащихся начальных классов. В исследовании рассматриваются методы, соответствующие возрастным особенностям учащихся, участие учителей и родителей, критерии оценки, а также приводятся рассуждения исходя из передового опыта Узбекистана. В статье на основе научно-теоретических и практических данных представлены предложения по совершенствованию медиаграмотностных навыков учащихся начальных классов.

Ключевые слова: медиаграмотность, начальное образование, модель 4К, медиапедагогика, медиаэтика, цифровая безопасность.

Annotation: This article analyzes the significance of modern methods, psychological approaches, international experiences, and the 4K model in increasing media literacy among primary school students. The research discusses age-appropriate methods for students, the involvement of teachers and parents, assessment criteria, as well as reflections based on the advanced experiences of Uzbekistan. The article presents proposals for improving media literacy skills of primary school students based on scientific-theoretical and practical experiences.

Keywords: media literacy, primary education, 4K model, media pedagogy, media ethics, digital security.

Kirish

So‘nggi o‘n yillikda raqamli texnologiyalarning ta’limga jadal kirib kelishi boshlang‘ich ta’lim tizimini ham tubdan o‘zgartirdi. Axborotga tezkor kirish imkoniyati, turli media platformalarning mavjudligi yosh o‘quvchilar hayotiga erta bosqichdan ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, ta’lim tizimi ularni axborotni tanqidiy

ISSN 3030-3907

tahlil qilish, ishonchli va ishonchsiz ma’lumotni ajrata olish, shuningdek, raqamli axloqqa amal qilishga o‘rgatishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hozirgi kunda YouTube, TikTok, Telegram kabi platformalarning faol foydalanuvchisiga aylangan. Bu esa ularning e’tiborini faqat o‘qituvchi emas, balki boshqa raqamli manbalar ham boshqarayotganini anglatadi. Shunday sharoitda media savodxonlikni shakllantirish nafaqat ta’lim sifati, balki axborot xavfsizligi va madaniy ong uchun ham muhim hisoblanadi (UNESCO 2022).

Media savodxonlikni o‘rgatish esa oddiy informatika darslaridan farqli ravishda keng qamrovli yondashuvni talab qiladi. Bu o‘z ichiga psixologik moslashuv, didaktik strategiyalar, texnologik integratsiya va sotsial muhitni qamrab oladi. Tadqiqot aynan shu omillarni tizimli tahlil qilishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot tahliliy-nazariy va qisman empirik usullar uyg‘unligida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida media savodxonlikni shakllantirishda zamonaviy metodlarning qamrovini aniqlash va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tahlil qilish uchun xalqaro va mahalliy miqyosdagi 20 dan ortiq manba, jumladan, UNESCO, Common Sense Media, Media Literacy Now tashkilotlari hisobotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar va mahalliy tajribalar tanlab olindi. Ushbu manbalar kontent tahlili usuli asosida o‘rganildi. Kontent tahlili orqali pedagogik va psixologik yondashuvlar, metodik tavsiyalar, tajriba asosidagi yondashuvlar ajratib olindi va tematik jihatdan guruhlandi.

Empirik asos sifatida O‘zbekistonda amalga oshirilgan media savodxonlik dasturlari – yangi darsliklar, metodik marafonlar, raqamli resurslar portali, informatika fanining erta bosqichda joriy qilinishi misol tariqasida tanlab olindi. Bu ma’lumotlar rasmiy veb-saytlar va normativ hujjatlardan to‘plandi.

Shuningdek, nazariy asoslarni kuchaytirish maqsadida Ganiyeva (2023), Mazanyuk (2023), Fedorov (2015) kabi mualliflarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun media savodxonlikni shakllantirishga doir tadqiqotlari tavsifiy yondashuv asosida tahlil qilindi.

Tahlil qilinayotgan har bir muammo uchun kamida ikki xil manba — biri xalqaro, ikkinchisi esa lokal tadqiqotdan tanlab olindi. Bu yondashuv tahlilni yanada kontekstual va moslashtirilgan qilish imkonini berdi. Metodologik yondashuvda shuningdek IMRAD tuzilmasi asos qilib olindi. Unda har bir bo‘lim o‘z funksional vazifasiga mos holda empirik dalil va nazariy asoslar bilan boyitildi.. Tahlil qilinayotgan har bir muammo uchun kamida ikkita nazariy yoki amaliy manba asos qilib olindi.

Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining media savodxonlik darajasini aniqlash, zamonaviy metodlarning ular uchun

ISSN 3030-3907

samaradorligini baholash va xalqaro tajribalar bilan mahalliy yondashuvlarni taqqoslashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borildi: (1) media savodxonlikning didaktik va psixologik asoslarini tahlil qilish, (2) ta’lim tizimidagi real amaliyotlarni o‘rganish, (3) ilg‘or xalqaro va mahalliy tajribalarni solishtirish.

Birinchi bosqichda media savodxonlik tushunchasi psixologik jihatdan bolalarning yoshiga mos ravishda qanday shakllanishi mumkinligi o‘rganildi. Bu borada Mazanyuk (2023), Fedorov (2015), Bonderenko (2020) va Khilko (2001) kabi mualliflarning ishlariga tayanildi. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, erta yoshdagi bolalar bilan ishlashda vizual, kinestetik va emotsional yondashuvlar asosiy rol o‘ynaydi.

Ikkinchi bosqichda O‘zbekiston ta’lim tizimida media savodxonlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan aniq amaliyotlar chuqur o‘rganildi. Jumladan, yangi darsliklarda qo‘llanilayotgan QR kodlar, interfaol topshiriqlar, “Yagona ta’lim resurslari” portali, informatika fanining 1-sinfdan boshlab o‘qitilishi va o‘qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan kurslar tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining rasmiy nashrlari va onlayn platformalari asosida baholandi.

Uchinchi bosqichda esa Common Sense Media (2023), UNESCO (2022) va Media Literacy Now (2023) kabi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida media savodxonlikni shakllantirish bo‘yicha global yondashuvlar tahlil qilindi. Bu manbalar orqali bolalarda tanqidiy tafakkur, media axloq, axborot xavfsizligi va ijodiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan metodikalar aniqlab olindi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida media savodxonlikni shakllantirishda metodik vositalar bilan bir qatorda, ularni qo‘llash uslubi ham muhim. Masalan, QR kodlar yoki interaktiv platformalar faqat texnik vosita bo‘libgina qolmasligi, balki bolalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ijtimoiy axloqni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak (UNESCO 2022; Ganiyeva 2023).

Bundan tashqari, tadqiqot davomida mahalliy va xalqaro yondashuvlar orasida uyg‘unlik nuqtalari aniqlanib, boshlang‘ich ta’lim darajasida qo‘llash mumkin bo‘lgan universal model ishlab chiqildi. Bu model 4K modeli (kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativlik, tanqidiy fikrlash) asosida shakllantirilib, unga qo‘shimcha tarzda axborot xavfsizligi, media axloq va oila bilan hamkorlik elementlari kiritildi.

Ushbu yondashuvlar sintez qilinar ekan, Ganiyeva (2023) va Fedorov (2015) ishlaridagi metodik tafsilotlar amaliy takliflar bilan uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotdan chiqqan asosiy xulosa shuki: media savodxonlik – bu alohida fan emas, balki

ISSN 3030-3907

fanlararo integratsiyalashgan yondashuv orqali shakllanuvchi kompetensiyalar majmuidir.

Tadqiqot natijalari asosida media savodxonlikni boshlang‘ich sinflarda shakllantirishda bir necha omillar o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tahlil davomida asosiy e’tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratildi: (1) nazariy va amaliy yondashuvlar sintezi, (2) yosh xususiyatlari va metodik uyg‘unlik, (3) xalqaro va mahalliy tajriba taqqoslanishi, (4) baholash mezonlarining tizimlashtirilishi.

Nazariy va amaliy yondashuvlarning integratsiyasi

Tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, media savodxonlik alohida o‘quv fanidan ko‘ra, ko‘p fanli va ko‘p bosqichli yondashuvni talab etadi (Fedorov 2015; Bonderenko 2020). Yangi darsliklarda bu integratsiya aniq namoyon bo‘lgan: QR kodlar orqali multimedia vositalariga havola, vizual materiallar, guruhiy mashg‘ulotlar va mustaqil tahlil topshiriqlari mavjud. Shuningdek, bolalarda tanqidiy tafakkur va media axloqni shakllantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar doimiy qo‘llaniladi.

Yosh xususiyatlari va metodik moslik

Psixologik jihatdan 6–10 yosh oralig‘idagi o‘quvchilar uchun informatsiya grafik, vizual va emotsional tarzda yetkazilishi kerak. Mazanyuk (2023) va Khilko (2001) bu yoshdagi bolalarning qabul qilish mexanizmini rasm, rang, ovoz, harakat orqali faollashtirish lozimligini ta’kidlaydi.

Yangi darsliklarda aynan shu asosga urg‘u berilgan. Shuningdek, quyidagi jadvalda media savodxonlik elementlari va yoshga mos metodlar muvofiqligi ko‘rsatilgan:

Media savodxonlik elementi	Tavsiya etilgan metod	Yoshga mosligi
Tanqidiy tafakkur	Savol-javob, keyslar	Yuqori
Media axloqi	Rolli o‘yinlar, hikoya	Yuqori
Axborot xavfsizligi	Komiks, animatsiya	O‘rta
Ijodkorlik	Loyiha ishi, rasm	Yuqori

Xalqaro va mahalliy tajribalarni taqqoslash

UNESCO (2022) va Common Sense Media (2023) tomonidan taqdim etilgan metodik tavsiyalar O‘zbekiston amaliyoti bilan qiyoslandi. Quyidagi diagramma orqali bu o‘xshashliklar va farqlar aks ettirilgan:

ISSN 3030-3907



Diagramma: *Mahalliy va xalqaro tajribaning ustuvor yo'nalishlari*

Bu yondashuvlar bir-birini to'ldiradi. O'zbekiston amaliyoti texnologik integratsiyaga urg'u bersa, xalqaro tajriba ko'proq axloqiy va madaniy jihatlarga e'tibor qaratadi.

Baholash mezonlarining tizimlashtirilishi

Media savodxonlikni baholash hali ham ko'plab maktablarda aniqlikdan yiroq. Tadqiqot davomida Fedorov (2015) tavsiya qilgan baholash mezonlari asosida quyidagi tizim taklif qilindi:

– Axborotni topish va tahlil qilish
– Ma'lumot ishonchliligini aniqlash
– Etik me'yorlarga amal qilish
– Ijodiy ifoda
– Axborotni muloqotda to'g'ri qo'llash

Bu mezonlar asosida formatif (jarayon davomida) va summativ (yakuniy) baholash vositalari ishlab chiqilishi kerak.

Kompleks model zarurati

Tahlil shuni ko'rsatadiki, media savodxonlikni samarali shakllantirish uchun quyidagi komponentlardan iborat kompleks model zarur:

– 4K modeli asosida dars mazmuni
– Media axloq va axborot xavfsizligi elementlari
– Ota-ona va jamiyat bilan hamkorlik
– Baholash indikatorlari
– Amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlash

Bu model faqat boshlang'ich sinf o'quvchilari emas, balki o'qituvchi va ota-onalar uchun ham qulay yo'riqnoma sifatida xizmat qilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot va tahlil bosqichida aniqlangan natijalar boshlang‘ich ta’limda media savodxonlikni shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon ekanini ko‘rsatdi. Ushbu bo‘limda o‘rganilgan muammolarni tahliliy yondashuvda umumlashtirish, ulardan kelib chiqadigan nazariy va amaliy xulosalarni ishlab chiqish maqsad qilingan.

Birinchidan, zamonaviy media muhiti o‘zgaruvchan bo‘lib, o‘quvchilarni axborotni tanqidiy baholash, undan oqilona foydalanish, shuningdek, axborot manbalarining ishonchliligini tekshirishga o‘rgatish zarurati tug‘iladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mavjud o‘quv dasturlari bu ehtiyojni to‘liq qoplay olmaydi. Shu sababli, media savodxonlik alohida modul yoki tarmoqli kompetensiya sifatida barcha fanlarda uyg‘unlashtirilishi kerak.

Ikkinchidan, bolalarning kognitiv va emotsional rivojlanish darajasi ularning axborotni qanday qabul qilishida muhim rol o‘ynaydi. Vizual, kinestetik va eshituv asosidagi metodlar, interfaol mashg‘ulotlar va dramatik yondashuvlar ularning bilimni singdirish darajasini oshiradi. Mahalliy tajribalarda bu metodlar sinovdan o‘tkazilgani aniqlangan bo‘lsa-da, ularni tizimlashtirish va pedagoglar malakasini oshirish zarur.

Uchinchidan, xalqaro tajribalar (UNESCO, Common Sense Media, Media Literacy Now) bilan mahalliy amaliyotlar (O‘zbekistonning yangi darsliklari, metodik marafonlar, raqamli resurslar) o‘rtasida strategik uyg‘unlik mavjud. Lekin xalqaro tajribalarda media axloq va shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligiga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa, mahalliy tajribalarda texnologik jihatlar ustun. Bu tafovutlarni bartaraf etish uchun kompleks model asosida faoliyat olib borish muhim.

To‘rtinchidan, media savodxonlikni baholash tizimi hali ham zaif. Ayni vaqtda test asosidagi baholash vositalari o‘quvchining real media muhitdagi xatti-harakatini aniq ko‘rsatib bera olmaydi. Fedorov (2015) tomonidan tavsiya etilgan portfoliolar, loyiha asosidagi baholash va o‘z-o‘zini refleksiya qilish metodlari asosida kompleks baholash tizimi joriy etilishi lozim.

Beshinchidan, ota-onalar va jamiyatning roli ajralmas omil hisoblanadi. Media savodxonlik bo‘yicha maktab tashabbuslari ko‘pincha oila muhitida qo‘llab-quvvatlanmasa, natijadorlik pasayadi. Shu sababli, oilalar bilan ishlash, mediatizatsiyalashgan jamiyatda farzand tarbiyasi bo‘yicha treninglar va metodik yordam zarur.

Umuman, munozara shuni anglatadiki, media savodxonlikni shakllantirish bir yoqlama emas, balki fanlararo, ko‘p bosqichli, madaniy va texnologik uyg‘unlikni talab etuvchi murakkab kompetensiya bo‘lib, uni shakllantirish strategiyasi aniq va tizimli bo‘lishi lozim.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari asosida media savodxonlikni boshlang‘ich sinflarda shakllantirishda bir necha omillar o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tahlil davomida asosiy e’tibor quyidagi yo‘nalishlarga qaratildi: (1) nazariy va amaliy yondashuvlar sintezi, (2) yosh xususiyatlari va metodik uyg‘unlik, (3) xalqaro va mahalliy tajriba taqqoslanishi, (4) baholash mezonlarining tizimlashtirilishi.

Birinchidan, media savodxonlik alohida o‘quv fanidan ko‘ra, ko‘p fanli va ko‘p bosqichli yondashuvni talab etadi. Bu, ayniqsa, yangi darsliklar va amaliy mashg‘ulotlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Media vositalar yordamida axborotni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish, axloqiy baholash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda 4K modeli samarali natija berdi.

Ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun media savodxonlikni shakllantirishda ularning yoshga xos psixologik xususiyatlariga mos metodlar tanlanganida yuqori faollik va samaradorlik kuzatildi. Vizual materiallar, rolli o‘yinlar, komikslar, QR-kodli interaktiv vositalar ularda media madaniyatga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qildi.

Uchinchidan, xalqaro tajribalar bilan mahalliy amaliyotlar taqqoslanganda, bir qator uyg‘unliklar mavjudligi bilan birga, yondashuvdagi farqlar ham aniqlandi. Xalqaro model ko‘proq axloqiy tamoyillar va shaxsiy axborot xavfsizligiga urg‘u bersa, mahalliy model texnologik integratsiyaga ko‘proq e’tibor qaratadi.

To‘rtinchidan, baholash mezonlarining aniqlashtirilganligi va takomillashtirilgan tizimlar asosida o‘quvchilar media savodxonlik darajasi bo‘yicha aniqroq saralanishi mumkinligi isbotlandi. Fedorov (2015) taklif qilgan portfoliolar, loyiha asosidagi baholash va reflektiv metodlar o‘quvchilarni yanada faol va mas’uliyatli ishtirokchiga aylantiradi.

Beshinchidan, ota-onalar va jamoatchilikning ushbu jarayonga jalb qilinishi media savodxonlikning ta’sir doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Oila, maktab va jamiyatning hamkorlikdagi faoliyati bolalarning raqamli axborot muhitidagi harakatlarini ongli va madaniyatli qilishga olib keladi.

1. Psixologik moslashuv va yosh xususiyatlari

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rganish jarayonida emotsional va kognitiv jihatdan o‘ziga xosliklarga ega. 6–10 yosh oralig‘idagi bolalar vizual va kinestetik usullarga, ya’ni ko‘rish va harakat orqali bilim olishga ko‘proq moyil. Shu sababli, media savodxonlikni rivojlantirish uchun foydalaniladigan metodlar ham ularning yoshga xos psixologik xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.

Interfaol o‘yinlar, rasm va animatsiya bilan boyitilgan topshiriqlar, ovozli hikoyalar, rolli o‘yinlar bolalarda diqqatni ushlab turish, qiziqishni saqlash va axborotni tezroq qabul qilishda muhim vosita bo‘ladi (Mazanyuk 2023). Bonderenko (2020) ta’kidlaganidek, yosh o‘quvchilar bilan ishlashda abstrakt

ISSN 3030-3907

kontseptsiyalar emas, balki konkret holatlar orqali media tushunchalarni ochib berish samaraliroqdir.

Bu xulosa O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi darsliklar va metodik yondashuvlar misolida ham tasdiqlandi. Darsliklarga kiritilgan real hayotdan olingan keyslar, savol-javoblar, testlar bolalarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini uyg‘otish bilan birga, ularni media muhitda o‘zini tutishga tayyorlaydi.

2. Axborot xavfsizligi va media axloqi

Bolalar tomonidan qabul qilinayotgan kontent hajmi va tezligi ortib borayotgani sababli ularni axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni muhofaza qilish, yolg‘on axborotdan saqlanish, axloqiy me’yorlarga amal qilish kabi yo‘nalishlarda o‘rgatish dolzarb bo‘lib bormoqda. Common Sense Media (2023) o‘tkazgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 8–10 yoshli bolalarning 60 foizdan ortig‘i internetdagi harakatlarini ota-onasidan yashiradi.

Ganiyeva (2023) qayd etganidek, bolalarga media axloqni o‘rgatish ularning kelajakdagi axborot bilan ishlash madaniyatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, media savodxonlik darslarida faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki etik tamoyillar ham birgalikda o‘rgatilishi zarur. Axborotni tarqatishdan oldin u haqida o‘ylash, salbiy izohlar bermaslik, boshqa fikrlarga hurmat bilan qarash kabi qadriyatlar erta yoshdan boshlab shakllantirilsa, bu bolalarning ijtimoiy axloqiy fazilatlarini rivojlantiradi.

3. Tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish

UNESCO (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, media savodxonlikni yoshligidan o‘rgatish ijodkorlik va tanqidiy tafakkur rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, erta yoshdagi o‘quvchilar oddiy matn va rasm asosida xulosa chiqarish, sabab–natijani aniqlash, ijtimoiy kontekstda axborotning ta’sirini tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Bazhenova (2004) tomonidan taklif etilgan loyiha asosidagi yondashuvlar, masalan, “O‘z media hikoyangni yarat” yoki “Axborotni tekshir” kabi topshiriqlar bolalarda nafaqat tafakkur darajasini oshiradi, balki ularning ijodiy ifoda ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Fedorov (2015) bu jarayonni “axborotni rekonstruksiya qilish orqali anglash” deb ataydi.

Shuningdek, ijodiy fikrlash topshiriqlari o‘quvchilarning media mahsulotlarga nisbatan mustaqil qarash shakllantirishiga, ya’ni “yoqadi-yu lekin sababi nimada?” tarzida savollar berishiga olib keladi. Bu esa ta’lim jarayonini passivdan faolga aylantiradi.

4. 4K modeli va texnologik yondashuv

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 4K modelining barcha to‘rtta elementi – kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativlik va tanqidiy fikrlash – teng darajada muhimdir. Mazanyuk (2023) keltirgan metodik

ISSN 3030-3907

tavsiyalar asosida shakllantirilgan yangi darsliklar aynan ushbu kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

QR kodlar orqali video ko‘rsatmalar, interfaol topshiriqlar, testlar, podkastlar o‘quvchilarning individual o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirishga imkon beradi. Bunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, kurator rolini bajaradi. Khilko (2001) fikriga ko‘ra, bu kabi yondashuvlar bolalarning o‘z tajribasi orqali o‘rganishini kuchaytiradi.

Shuningdek, 4K modeli asosida tashkil etilgan media mashg‘ulotlar guruhiy muhokama, ijtimoiy tarmoqdagi xabarlarni baholash, o‘z fikrini dalillar bilan asoslash kabi topshiriqlar orqali bolalarni nafaqat bilimli, balki muloqotga tayyor, ijtimoiy faolligi yuqori shaxs sifatida tarbiyalaydi.

5. Ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlik

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarning media muhitdagi xatti-harakatlari bevosita ularning uy muhitida shakllanadi. Media Literacy Now (2023) qayd etganidek, ota-onalar o‘zlari media savodli bo‘lmagan taqdirda ham, bolalarining raqamli hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadilar. Shu sababli, ota-onalarni media tarbiya jarayoniga jalb qilish, ular bilan muloqotda bo‘lish va ularga metodik yordam ko‘rsatish zarur.

Ganiyeva (2023) bu borada maktabda ota-onalar uchun treninglar, ochiq darslar, qo‘llanmalar tashkil etish orqali umumiy media madaniyatni oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Oilaviy media tartib-qoidalari, masalan, ekran oldida o‘tkaziladigan vaqt, birgalikda axborotni muhokama qilish, bolaga savollar berish orqali ularni tanqidiy o‘ylashga undash mumkin.

Yuqoridagi yondashuvlar media savodxonlikni nafaqat o‘quvchi, balki butun oila darajasida shakllantirishni ta’minlaydi va bu jarayonning barqarorligini oshiradi.

6. Baholash vositalari va monitoring

Media savodxonlik darajasini o‘lchashda faqat testlar emas, balki jarayonni baholovchi yondashuvlar qo‘llanilishi zarur. Fedorov (2015) bu borada portfolio, media mahsulotlar yaratish, mulohazali yozuvlar, jamoaviy loyihalar va o‘z-o‘zini baholashni taklif etadi.

Shuningdek, media savodxonlikni baholash indikatorlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: axborotni topish, uning ishonchliligini baholash, tahlil qilish, taqqoslash, muloqotda ifodalash va axborot asosida harakat qilish. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun bosqichma-bosqich yondashuv, baholashni formatif va summativ shaklda olib borish samarali hisoblanadi.

7. O‘zbekistondagi amaliy yondashuvlar

Tadqiqot davomida O‘zbekistonda olib borilayotgan tajribalar – yangi darsliklarda QR kodlar, vizual materiallar, amaliy topshiriqlar; “Metodik

ISSN 3030-3907

marafonlar", "Yagona ta'lim resurslari" portali, informatika fanining 1-sinfdan boshlab o'qitilishi, 45 mingdan ortiq boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirishga doir faoliyatlar tahlil qilindi.

Bu amaliyotlar boshlang'ich ta'limda media savodxonlikni joriy etish nafaqat g'oya sifatida, balki amaliyot darajasida ham qo'llanilayotganini isbotlaydi. Shuningdek, mahalliy sharoitga moslashgan metodikalar, til va madaniyat kontekstiga e'tibor berilganligi bu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Bu bosqichda mahalliy va xalqaro tajribaning integratsiyasi media savodxonlikni yanada barqaror va tizimli yo'lga qo'yishda muhim omil sifatida ko'rilmoqda. Tadqiqotdan ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida media savodxonlikni shakllantirish uchun faqat darsliklar emas, balki tizimli, ko'p yo'nalishli yondashuv talab etiladi. Media savodxonlik – bu faqat texnik ko'nikma emas, balki tanqidiy tafakkur, axloqiy me'yorlar, ijodkorlik va raqamli xavfsizlikni o'z ichiga olgan murakkab kompetensiyadir.

Ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun:

- psixologik xususiyatlar asosida metodlar tanlash;
- 4K modelidan kompleks foydalanish;
- o'qituvchilar va ota-onalarni tayyorlash;
- texnologiyalarni amaliyotga integratsiyalash

kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. O'zbekiston misolida olib borilayotgan islohotlar ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanini ko'rsatmoqda. Kelgusida media savodxonlikni milliy o'quv dasturiga mustahkam kiritish ta'lim sifati va axborot xavfsizligiga xizmat qilishi muqarrar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bazhenova, L.M. *Mediaobrazovanie shkolnika (1-4 klassy): Posobie dlya uchitelya*. Moskva: RAO, 2004.
2. Bonderenko, E.A. "Mediaobrazovanie: perspektivy integratsii v sovremennyy obrazovatelnyy protsess." In *Integratsiya mediaobrazovaniya v usloviyakh sovremennoy shkoly*, edited by A.V. Fedorov et al., 211. Moskva; Berlin: DirektMedia, 2020.
3. Common Sense Media. "Media Literacy for Kids." Last modified February 2023. https://www.commonsensemedia.org/.
4. Fedorov, A.V. *Mediaobrazovanie: istoriya i teoriya*. Moskva: MOO "Informatsiya dlya vsekh", 2015.
5. Ganiyeva, Gulhayo Islom qizi. "Rol' mediaobrazovaniya v povyshenii mediagramotnosti uchashchikhsya nachalnykh klassov." *Research Focus* 2, no. 8 (2023). https://refocus.uz/.
6. Khilko, N.F. *Rol' audiovizual'noy kultury v tvorcheskom samosovershenstvovanii lichnosti*. Omsk: Sibirskij filial RIK, 2001.

ISSN 3030-3907

7. Mazanyuk, Elena Fedorovna. “Formirovanie osnov mediagramotnosti obuchayushchikhsya nachalnoy shkoly.” *Pedagogika*, no. 78, part 2 (2023).
8. Media Literacy Now. "Advancing Media Literacy Education." Accessed March 2023. https://medialiteracynow.org/.
9. UNESCO. *Media and Information Literacy: Educational Approaches to the New Challenges*. Paris: UNESCO Publishing, 2022.

ISSN 3030-3907